



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING INTELLEKTUAL HAMDA EMOTSIONAL SOHALARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-DIDAKTIK ZARURIYAT SIFATIDA

Seydabullaeva Raziya Alimovna
TPMI mustaqil tadqiqotchisi

Kópenova Gúldana
ITU talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15079923>

***Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual hamda emotsional sohalarini rivojlantirishda ularning yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy-didaktik zaruriyatlarini shakillantirish. Bunda bolalarning emotsional hissini shakillantirishda musiqa mashg'ulotlarida yanada syujetli rolli va sahnalashtirish markazlarida yuqori darajada emotsional xissini shakillantirib boramiz.*

***Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim rivojlantiruvchi markazlar, frontal mashg'ulotlar.*

Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanayotgan ta'lim sohasi bo'lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan davlat o'quv dasturiga (2018-yil) o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda ikkinchi nashr "Takomillashtirilgan ilk qadam" davlat o'quv dasturini yaratish zarurati tug'ildi. Bolalar va pedagogning o'zaro hamkorligi yangi formatda, ya'ni "bolaning ovozi", uning fikrini hurmat qilish, shuningdek, bolalarning o'quv jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini rivojlantirish va ko'paytirishga; loyiha faoliyati uchun mavzularni tanlashda bolalar tashabbusi va imkoniyatlarini kengaytirishga; individual tarzda va kichik guruhlarda ishlash uchun rivojlanish markazini tanlashga; kun davomida bolalar bilan o'quv faoliyatini birgalikda rejalashtirish, ta'lim olshni rivojlantiruvchi muloqot orqali birgalikda baholashga asoslangan holda taqdim etildi. Bugungi kunda barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Men konsepsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratish" asosida ta'lim jarayonlarini tashkillashtirib kelimoqda. Bunda bolalarning emotsional holatlariga qarab ularga erkin tanlov huquqi berilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim uchun judayam ko'p shart sharayotlar yaratilmoqda. Shularni misol tariqasida aytadigan bo'lsak maktabgacha ta'lim uchun didaktik materiallar bilan ta'minlandi. Bu materiallar maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun juda qulay bo'ldi. Chunki didaktik materiallardan maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi, tarbiyachi, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, defektologlar



uchun judayam qulay bo'lyapti. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari har didaktik materiallardan foydalanib kelinmoqda. Bunda farzandlarimizning emotsional qiziqishi mashg'ulotlarga qiziqishi kun sayin artib bormoqda. Chunki (UNICEF) tarafidan berilgan rang barang didaktik materiallarga qiziqishi kun sayin ortib bormoqda. Bu materiallardan foydalanish asosida bolalarda emotsional xisssiyotlari rivojlanmoqta.

Emotsiyalar real borliqni obyektiv aks ettirish va unda to'g'ri mo'ljal olish uchun bolalar hayotida muhim rol o'ynaydi. Shu bois kattalar, ya'ni, ota-ona va tarbiyachilar bolalar bilan izchil va iliq emotsional munosabatlarni o'rnatishga harakat qilishlari zarur. Zero, boshqa insonlar bilan o'zaro muloqot va munosabatlar, ularning xatti-harakatlari maktabgacha yoshdagi bolalar hissiyotlari shakllanishi uchun muhim manba hisoblanadi. Emotsiyalar sub'ekt faoliyatini aniqlashtiradi, tashkillashtiradi, ruhlantiradi va baholaydi. Emotsiyalarni rivojlantirish muammosi, ularning motiv sifatida paydo bo'lishi hamda yo'naltiruvchi roli pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan sanaladi. Nafaqat bolalar psixikasi va uning alohida qirralari rivojlanishining umumiy qonuniyatlari borasida, balki, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs sifatida shakllanishi xususiyatlari borasida ham yetarlicha tasavvurlar beradi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi o'zida emotsiyalar rivojlanishi bilan bog'liq chuqur, yaxlit jarayonni aks ettiradi. Emotsiyalar bolaning umumiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Emotsiyalar bolaning o'qishidagi samaradorlikni aniqlashtiradi, bolaning ijodiy, mehnat, o'quv faoliyati va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini tashkil etishida ishtirok etadi. Maktabgacha yosh davrida bolalar o'zining emotsiyalarini yetarli darajada boshqara olmaydi, shu bois, kattalarning vazifasi bolani o'z emotsiyalari va faoliyatini boshqarishga o'rgatish, uning natijasini oldindan ko'ra olish va bajarilishini nazorat qilishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti amaliyotida turli yoshga mansub bolalar guruhleri imkoniyatlaridan, ya'ni, turli rollarni bajarish, hamdardlik ko'rsatish, ko'maklashish, insonlarni boricha, ular qanday bo'lsa shunday qabul qilish imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmaydi. Bolalar bilan ijtimoiy faol ish shakllari, masalan, loyihalash faoliyati, ijtimoiy vaziyatlarni o'ynash kabilardan keng foydalanmaydilar yoki bu ish usullarini bilmaydilar yoki eskicha ish usullarini qo'llaydilar.

Bolalarning emotsional holatini uyg'otishda eng birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tashkiloti juda katta o'rin egallaydi, chunki kun davomida bolalar maktabgacha ta'limda vaqtini o'tkazadi, shuning uchun maktabgacha ta'limda frontal



mashg'ulotlardan matematika, nutq o'stirish, savodxonlikka o'rgatish, jismoniy tarbiya, musiqa, ikkinchi til mashg'ulotlarini tashkillashtiriradi.

Bunda maktabgacha ta'limda o'quv yili boshidan mashg'ulot jadvali tasdiqlanib yil davomida mashg'ulotlarni maktabgacha ta'lim pedagoglari yuqori darajada olib boriladi. Bunda bolalarning emotsional hissini uyg'otishda musiqa rahbarining roli katta. Bolalarni qancha ko'p musiqaqa qiziqтира olsak shunda bolalarning emotsional jarayonlari tez rivojlana boshlaydi. Bolalarda yanada ijodkorlik xissini uyg'otishda bolalarda rasm chizishga qiziqtirish orqali amalga oshirish lozim. Bola o'zi chizgan rasmini ko'rib undan faxrlana boshlaydi. Shuning uchun maktabgacha ta'limda bolalarga rasm chizishga, qo'shiq aytishga qiziqтира olishimiz kerak. Agar tarbiyachi bolalarni rasm chizishga, musiqa tinglashga qiziqтира olmasa unda bolalarda maktabgacha ta'limga qiziqishi va emotsional xissini uyg'ota olmaymiz.

Shu sababli maktabgacha ta'limda har bir ta'lim jarayonini o'yin asosida tashkillashtirilib kelmoqda. Maktabgacha ta'limda har bir guruhda o'yin usulida tashkillashtirilmoqda. Chunki o'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin orqali ta'lim olish bolalarni intellekual rivojlanishiga yo'naltirilgan yondashuvlaridan biridir. O'yin – bu bolani o'zini va atrofıdagi dunyoni o'rganishga undashning tabiiy usuli. O'yin bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O'yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o'zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi. O'yin boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi, ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi. Va, eng muhimi, o'yin ta'lim olishni quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. O'yin har xil bo'lishi mumkin – bolaning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan to'laligicha erkin, pedagogning minimal yoki to'liq ishtirokisiz - pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning ko'rsatmalari yordamida amalga oshiriladi. Erkin o'yinning ahamiyatini tushunish va e'tirof etish bilan birga, uyushgan o'yinda pedagogning hal qiluvchi rolini ham tan olish kerak. Ta'lim va tarbiya jarayoni o'yin o'ynash imkoniyatini ta'minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o'yin o'ynash imkoniyatiga hissa qo'shishi kerak.

O'yin uchun sharoit yaratish, ya'ni bolalarni yetarli vaqt, joy, qo'llab-quvvatlovchi resurslar va o'yinchoqlar bilan ta'minlash juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar bolalar o'yiniga yordam berishlari muhimdir.

O'yin davomida maktabgacha ta'lim uchun berilgan didaktik materiallardan oqilana foydalanishi zarur. Didaktik materiallarni qo'llashdan oldin tarbiyachi



ma'lumotlar bilan o'zi yaxshilab tanishib chiqishi shart. Shundagina bolalarga yuqori darajada ta'lim bera olamiz.

Bola faol harakatda bo'ladi, ya'ni tashqi muhit yoki hissiyotlar bolaga tez ta'sir qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqati judayam past bo'ladi, bir faoliyatdan boshqasiga tez almashadi. Kayfiyati ham o'zgaruvchan bo'lganligi sababli o'zgarishlarga qiyin moslashadi. Bolalarning ayrimlari butun borliqni qabul qiladigan, munosabatlarga tez kirashadigan, atrofdagilarga ishonadi yoki introvert turli vaziyat va notanish odamlarga qiyinchilik bilan kirishadi.

Tarbiyachi-pedagoglar bolalarning individual xususiyatini ularning emotsional holatiga asoslanib aniqlaydi. Bolalarni emotsional rivojlantirishning dolzarbligi shundaki, maktabgacha yosh davri bola shaxsi shakllanishi va rivojlanishining eng nozik, sezuvchan davri hisoblanadi. Yaxlit holda, maktabgacha yosh davri bolaning psixik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, aynan bu davrda faoliyat va xulq-atvorning yangi psixologik mexanizmlari shakllana boshlaydi. Turli vaziyatlar yuz bergan vaqtida bolani o'z-o'zini baholash va reflektiv faoliyatga undash lozim. Natijada ularda ijobiy emotsiyalar rivojlanadi.

Adabiyotlar:

1. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Balalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. - Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2017.
2. Т.Д. Марцинковская. Детская практическая психология. М.2000.
3. Q.D.Tleumbetova. Balalar psixologiyasi ham psixodiagnostikasi. Oqiw qol. Nukus, NMPI, 2019
4. Г.А.Урунтаева. Детская психология. М.Академия. 2013-Toshkent 2005
5. Q.Tleumbetova. Psixolog sandiqshasi. Nókis. 2019
6. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. T.: 2022.